

**ANUSHTEGINLAR DAVLATINING MA’MURIY VA SAROV
BOSHQARUV TIZIMI, UNVONLAR VA MANSABLAR**

Xabibullo Xoji Muxammadyusuf

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

Annotatsiya: Xorazm davlati qadimda, o’rta asrlar va keyingi davrlarda Markaziy Osiyoda bo’lib o’tgan barcha siyosiy jarayonlarda faol qatnashgan. Ammo, shu davrlar ichida xorazmshoh - anushteginiyalar davri alohida ajralib turadiki, bu davrda Xorazm nafaqat Markaziy Osiyo balki, butun jahon miqyosida ham muhim rol o’ynovchi davlatlardan biri bo’lgan desak hech qanday mubolag’a bo’lmaydi. Bu sulolaning ba’zi hukmdorlari islom tarixida ham katta ta’sir o’tkazgan.

Аннотация: Хорезмское государство активно участвовало во всех политических процессах, происходивших в Средней Азии в древний, средневековый и более поздний периоды. Однако среди этих периодов выделяется эпоха хорезмшаха – Ануштегинидов. Не будет преувеличением сказать, что в этот период Хорезм входил в число стран, игравших важную роль не только в Средней Азии, но и во всем мире. Некоторые из правителей этой династии оказали большое влияние на историю ислама.

Abstract: Khorezm state actively participated in all the political processes that took place in Central Asia in the ancient, medieval and later periods. However, among these periods, the era of Khorezm Shah - Anushteginids stands out. It is no exaggeration to say that during this period, Khorezm was one of the countries that played an important role not only in Central Asia, but also in the whole world. Some of the rulers of this dynasty had a great impact on the history of Islam.

Kalit so’zlar: Anushteginlar, Xorazm, Bartold, xorazmshox, Juzjoniy, Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy, saroy, davlat boshqaruvi, tarixiy asarlar, sulola.

Ключевые слова: Ануштегины, Хорезм, Бартольд, Хорезмшах, Джужоны, Шихабиддин Мухаммад ан-Насави, дворец, государственное управление, исторические труды, династия.

Keywords: Anushtegins, Khorezm, Barthold, Khorezmshah, Juzhony, Shihabiddin Muhammad an-Nasawi, palace, state administration, historical works, dynasty.

Kirish. Qariyb ikki yuz yillik tarixga ega bo’lgan Xorazmshoh - anushteginiyalar davlatida kechgan turli siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlar tarixi bugungi kunda o’rganilishi dolzarb bo’lgan mavzular ob’ektiga aylanmoqda. Ayniqsa bu davlatning siyosiy - ma’muriy boshqaruv tizimi va davlatdagagi unvon va mansablar masalasi nisbatan sust yoritilgan va alohida mavzu sifatida chuqr ilmiy tahlil qilinmagan

mavzulardan biri hisoblanadi. Ayni shu mavzu turli yozma manbalarda o’z aksini topgan. Ammo, mazkur yozma manbalar ma’lumotlari qiyosiy va ilmiy jihatdan keng miqyosda tahlil qilinmagan. Shuning uchun ham mazkur mavzu o’zbek davlatchilik tarixining uzviy ajralmas qismi sifatida ham, Xorazm tarixining kam organilgan sahifasi sifatida ham muhim va dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

O’rta Osiyoga arablarning bosqini va islom dinining yoyilishi natijasida musulmonlarning tarixiy tafakkuri kirib kelishiga sabab bo’lgan. Arab xalifaligi tarkibiga kirgan vatanimizning hududlaridagi Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G’aznaviylar, G’uriylar, Xorazmshohlar sulolalarining hukmronliklari yagona bir tarixiy jarayon, aniqrog‘i xalifalik tarixi doirasida o’rganilib, talqin etilishi kuzatiladi. Jahon tarixiga, shu jumladan, musulmon olami tarixiga bag‘ishlangan barcha asarlarda mahalliy sulolalar, yoki xalifa gumashtalari tarafidan tuzilgan barcha davlatlarning tarixi xalifalik/islom davlatining ajralmas bir qismi sifatida yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili: Xorazmshohlar sulolasiga Xorazm tarixining ajralmas, muhim qismi bo’lganligi sababli, ushbu mavzuga bu mintaqaga yaqin qo’shni bo’lgan mamlakatlarning bir qancha olimlari o’rganish maqsadida murojaat qilganlar. Jumladan, rossiyalik tadqiqotchilardan V.V.Bartold “Туркестан в эпоху монгольского нашествия”[1], “К вопросу о Чингизидах-христианах.”[2], “История культурной жизни Туркестана”[3] kabi asarlarida ilk bor Xorazmshohlar - anushteginiylar sulolasiga tarixini manbalar asosida, ijtimoiy va maishiy sharoitlarga e’tibor berilgan holda yoritadi.

Xorazm yozma manbalarida o’zbek davlatchiligi tarixini yoritar ekanmiz, mavzuimiz doirasida, V.V. Bartoldning quyidagi xulosalari muhimdir:

-Xorazmshohlarning yuksalishiga ularning qulay tabiiy sharoitlari, ya’ni mustaqil yagona jug’rofiy va etnik muhit sabab bo’lgan. Xorazmshohlar o’z raqiblaridan o’zlarining doimiylilik va siyosiy san’atlari bilan ustun bo’lib, asta- sekin musulmon olamining sharqida birinchi bo’lib oldilar.

- Xorazmshoh Muhammad o’z hukmronligi davrida hamda noshud siyosati natijasida harbiylar tabaqasi, ruhoniylar va xalq ommasini o’ziga qarshi qilib qo’ydi. Saltanat vaziri mansabini yo’q qilgach, u o’zining byurokratiyasini ham zaiflashtirdi. U tashqi dushmanlariga qarshi chiqish uchun davlat tizimining na biror bir unsuri, na aholining biror bir tabaqasiga tayana oldi va mag’lub bo’ldi.

- Chingizzon bosqini arafasida Xorazmshohlar davlati og’ir ichki tarqoqlikni boshdan kechirardi. Markaziy hokimiyat zaiflashdi. Xorazmshoh qo’shiniga qat’iy intizomga ega bo’lgan, tez harakat taktikalarni o’zlashtirgan mo’g’ullar armiyasi qarshi turgan.

V.V. Bartold uzining “Образование империи Чингизхана”[4] degan asarida qisman Xorazmshohlar davlati va uning davlat tizimi haqida to’xtalib o’tadi.

V.V. Bartoldning “История культурной жизни Туркестана” асарининг III бобида Xorazmshohlar davlatiga alohida ahamiyat berilgan. Akademik V.V. Bartoldning O’rta Osiyo turkiy xalqlari tarixiga oid o’n ikki dars (leksiya)lari avvalboshda 1927-yili turk tilida chop etildi. Tarjimonlar Ahmad Zakiy Validiy va Rog’ib Xulusi[5] bo’lgan. Ushbu asarning VIII, IX va XII leksiyalarida mavzuga doir materiallar, fikr va xulosalar mavjud.

Natijalar: Xorazmshohlar davlatida markaziy boshqaruv idorasi «**al-majlis ul oliy al faxri at-toji**» deb nomlangan bo’lib, uni vazir boshqargan. **Vazir** - mamlakatda sultondan keyingi eng yuqori mansabdor shaxs bo’lgan. Vazir sultonning bosh maslahatchisi bo’lib, bevosita unga bo’ysungan. Vazir rasmiy marosimlarda, davlatlararo aloqalarda, mustamlakalar bilan olib boriladigan muzokaralarda xorazmshoh nomidan ishtirok etib, sulton va rayiat (fuqarolar) o’rtasida vositachilik qigan[6]. Barcha davlat amaldorlari, jumladan, amirlar, beklar va harbiy boshliqlar vazirga bo’ysungan. Vazirning vazifalari qo’yidagilardan iborat bo’lgan:

- ashob ad-davanin yoki devonxonalar amaldorlarining boshlig’i. Yuqori mansabli amaldorlarini ishga tayinlagan yoki ishdan bo’shatgan;
- davlat amaldorlariga nafaqalar (arzak) va moddiy yordam (mavajib) joriy etish ishlarini boshqargan;
- davlat amaldorlarini hayot uchun zaruriy ozuqa va ashyolar bilan ta’minlanishini belgilagan;
- bojxona va xazina faoliyatini nazorat qilgan;
- sultonga mutazam ravishda hamrohlik qilgan, ba’zi paytlarda qo’shin jo’natib ularga boshchilik qilgan.

Xorazmshohlar davlatida vazirlik lavozimi katta hurmatga ega bo’lib, o’rta asr manbalarining birida vazir haqida shunday ma’lumot beriladi (Z. Bunyodov bo’yicha): «eng yuksak mahkama - vazorat (vazirlik) bo’lib, barcha jamoat ishlari hamda odamlar hayotining to’g’ri yo’ldan borishi u bilan aloqadordir, buning natijasida mamlakatning chiroyi va martabasi ortadi, davlatda tartib va qonunchilik o’rnataladi... Vazir - idora qilish qonunlarini biladigan, davlat kelajagini biladigan, hayotiy tajribaga boy, yaxshi ishlarga undovchi, shon-shuhurat va yutuqlarga etaklovchi, fuqarolar ahvoldidan ro’yirost xabardor qilib turadigan, ko’rsatmalariga to’la ravishda ishonish mumkin bo’lgan kishi bo’lishi lozim .»

Vazirlarga sadr, dastur, xojayi bo’zruk kabi unvonlar berilgan. Vazir lavozimidagi shaxs o’zining siyohdoni (dovot) va ma’lum xil movutdan o’ralgan sallasi (dastor) bilan ajralib turgan. Ular asosan arab-fors mansabdorlari muhitiga mansub kishilar bo’lib, arab hamda fors tili, ma’muriy ishdagi layoqati, saroy tartib-qoidalarini bilishi shart bo’lgan. Xorazmshohlar davlatining vazirlari asosan Xorazm, Buxoro, Nishopur, Isfaxon, Balx, Hirotdan chiqqan arboblar bo’lgan. Xorazm davlatiga qarashli viloyatlarning ma’muriy boshqaruvida ham vazirlar bo’lgan. Ba’zan shaharlarga ham

vazirlar tayinlangan bo’lib, ular o’sha madaniy va iqtisodiy markazning yagona hokimi ham edilar. Xorazmshohlar davlatida vazir lavozimi dastlab Sulton Otsiz hukumatida paydo bo’lgan[7].

O’rta asrlar yozma manbalarida Xorazmshohlar davlat boshqaruvidagi ko’pgina mansab va lavozimlar haqida ma’lumotlar saqlanib qolgan. Ularning asosiyлari quyidlagilaridir:

Bosh hojib yoki ulug’ hojib (hojibul-kabir) - oliy hukmdor shaxsi bilan bog’liq masalalar, marosimlar, marosimlarning nazorati bilan aloqador ishlarga javobgar bo’lgan. Ular sultonning eng zarur topshiriqlarini bajarganlar hamda hukmdorga doimiy ravishda hamrohlik qilganlar. Ular vazirlik devonining daftarlari, undagi yozuvlar, arxivlar, moliya sohasidagi kotiblar va amaldorlarning hatti-harakatini nazorat qilgan.

Ustozdor - xorazmshohlar saroyida xizmatkorlarga bosh bo’lib, otxonalar, oshxonalar, novvoyxonalar, sharobxonalar xo’jaligini boshqarar edi. Oliy hukmdorning birinchi chorlashidayoq ustozdor etib kelib, sulton topshiriqlarini boshqa xizmatkorlarga etkazar edi. Ustozdor saroyning barcha chiqimlarini amalga oshirgan. Saroy mansablarining barcha xarajatlari ham uning zimmasida bo’lgan. Ustozdor xazinadan chiqadigan barcha sarf-xarajatlar uchun doimiy ravishda sultonga hisobot berib turgan.

Amiri-oxur (miroxo’r) - sayischi, sulton otxonalari boshlig’ining lavozimi. U sultonga qarashli minib yuriladigan otlarga egalik qilgan. Miroxo’rlar harbiy yurishlarda ham faol ishtirok etganlar.

Amiri-shikor - sulton ovlarini tashkil etuvchi va boshqaruvchisi lavozimi.

Tashtdor - sulton ha.mmom1a.ri va hovo’zlarining boshlig’i. Uning qo’l ostida bir necha g’ulom bo’lgan. Tashtdorlar sultonga juda yaqin odamlar bo’lgan. Ayrim sultonlar tashtdorlarga malik unvonini ham berishgan. Ayrim tashtdorlar hatto o’n ming askarlarga boshchilik qilib, harbiy yurishlarga ishtirok etganlar, ba’zilari esa sultonning shaxsiy elchisi vazifasini ham bajargan.

Sharobdor - sulton sharobxonasining boshlig’i. Sharobxonada turli sharoblar tayyorlash bilan birga shirin ichimliklar tayyorlash uchun shakar ham saqlangan. Sharobdorlar amirlar orasidan tayinlanib, uning qo’l ostida bir nechta g’ulomlar bo’lgan.

Qissador - bir hafta davomida sulton nomiga yozilgan ariza va iltimosnomalarni yig’ib payshanbadan jumaga o’tar kechasi sultonga topshirgan. Juma kuni esa sultonning javobini ariza egalariga etkazgan. Xorazmshohlar saroyida qissador eng obro’li mansablardan biri hisoblangan.

Choshnigir (bakovul) - u dasturxon yozilganda sulton taomlaridan zaharlanmasligi uchun o’zi birinchi bo’lib tatib ko’rar edi.

Davotdor - sultonning xos kotibi, farmonlarini yozuvchi.

Farrosh - sulton o’rin-to’shaklari saqlanadigan farroshxonalar boshlig’i. Uning ixtiyorida gilamlar, chodirlar, poyondozlar, ko’rpa-to’shaklar bo’lgan. Farrosh va maxsus o’rgatilgan g’ulomlar sulton atrofida doimo hozir turar edilar.

Amirul-a’lam (a’lamdor yoki yalovbardor) - sulton bayroqdori yoki sulton tug’ining sohibi.

Xorazmshohlarning davlat tizimi Saljuqiylardan deyarli farq qilmagan. Ilgari bo’lgani kabi davlat boshqaruvi dargoh va devonlar majmuidan iborat bo’lgan. Dargohda **hojib, ulug’ hojib** Xorazmshohlar davrida ham o’z ahamiyatini saqlab qolgan. Hojiblarga maxsus mo’zokalar olib borish, hatto vazirlar faoliyatini tekshirish kabi muhim vazifalar topshirilgan. Hojiblarning viloyat hukmdori bo’lganliklari ham manbalardan ma’lum[8].

Xorazmshohlar davlatining aholisi va ularning qatlamlari haqida yozma manbalar (Muhammad Bag’dodiy) qo’yidagicha ma’lumot beradi.

1. **Sayidlar** - payg’ambar avlodlari sanalganliklari tufayli hukmdorlar ularni qattiq hurmat qilganlar hamda ularni har tomonlama, ayniqsa, moddiy jihatdan doimo qo’llab-quvvatlab turganlar.

2. **Imomlar va olimlar** - ularning maslahatlari va ko’rsatmalariga davlat ishlariga amal qilingan bo’lib, ijtimoiy hayotda bunday shaxslarning mavqeい ancha ustun bo’lgan.

3. **Qozilar va xokimlar** - asosiy qonun chiqaruvchilar bo’lib, ular shariatning aholi ustidan nazoratini amalga oshirganlar.

4. **Tasavvuf vakillari** - islom dinida noortodoksal oqim vakillari bo’lib, faqirona hayot kechirganlar. Ular orasidan chiqqan donishmandlar va mashoyixlarning ko’pchiligi xalq tomonidan e’zozlangan. Hukmdorlar bunday shaxslarni hurmat qilib, ularning duosini olib turgan.

5. **Oqsoqollar** - qishloq, qasaba, urug’-qabila boshliqlari.

6. **Amaldorlar va sipohiyalar** - hukmdorlarning joylardagi noiblari qo’li ostida xizmat qiluvchi shaxslar.

7. **G’oziyalar** - islom dini uchun kurashuvlar.

Xorazmshohlar davlati o’zining paydo bo’lgan davridan boshlab to inqiroziga qadar doimiy qo’shinlariga ega bo’lgan. Manbalarning ma’lumot berishicha, Xorazmshohlar o’z davlatida majburiy umumxalq harbiy ta’lim tizimini joriy qilganlar. Davlatdagi qo’shinlar soni hukmdorlar harbiy yurishlarining ko’lamiga qarab o’zgarib turgan. Manbalardan ma’lum bo’lishicha, 1218 yilda Muhammad xorazmshoh yalpi qo’shinlar ko’rigi o’tkazib, unda «150 mingga yaqin otliq, 100 ming piyoda askar qatnashdi».

Xorazmshohlar davlatining eng oliy harbiy boshqaruvi idorasi devon-al arz (yoki devon-al jaysh) deb nomlangan bo’lib, uning boshlig’i sohib devon-al arz (yoki sohibi devon-al jaysh, yoki ariz-al jaysh) hisoblanar edi. Devon-al arz harbiylarga tegishli

bo’lgan er-suvsalar, ularga beriladigan maosh va har xil to’lovlar, shuningdek, askarlarni ro’yxatga olish, ular va ular qo’lidagi quroq-aslahalarni tekshirib kurish ishlari bilan shug’ullanardi. Bu devon hamma harbiylarga belgilangan maoshlarini (mavajib, arzak) hamisha ma’lum vaqtda berib turar va harbiy boshliqlarning maoshini o’z qo’l ostidagilarga to’g’ri taqsimlanishini nazorat qilar edi.

Xorazmshohlar qo’shinlarining qo’mondoniga **qo’id** yoki **muqaddam** degan unvon tavsiya etilardi. Xorazmshohlar yangi zabit etilgan o’lka yoki viloyat erlarini amirlarga iqto tariqasida taqsimlab berar, mahalliy amirlar orasidan eng qobiliyatlisini ularga boshliq qilib tayinlab unga **amir-al umaro** (amirlar amiri) nomini berardi.

Qo’shindagi 10 ming kishilik suvoriylar guruhi qo’mondonlik qilgan kishilar malik unvoniga ega bo’lar edi. Janglarda alohida mardlik ko’rsatgan maliklarga esa xon unvoni berilgan. Qo’shindagi choparlar chovush, ularning boshliqlari esa muqaddam chovushiya deb yuritilgan. Maxsus xufiya va ayg’oqchilar bo’linmalari josusiya deb atalgan[9].

Urush boshlanishidan avval yoki urush e’lon qilingan vaqtda Xorazmshohlar harbiy kengash chaqirishar va unda oldinda turgan urush bilan bog’liq masalalar muhokama qilinardi. Ushbu kengashga Xorazmshohning o’zi boshchilik qilib, unga yirik harbiy arboblar, ulamolar, qonunshunoslar va munajjimlar taklif qilinar edi. Kengashda barcha takliflar ko’rib chiqilib, so’nggi qarorni shohning o’zi qabul qilardi.

Xorazm sultanati XII asrning oxiri - XIII asrning boshlarida musulmon Sharqining eng yirik va qudratli davlati edi[10].

Xulosha: Xorazmda bitilgan tarixiy yozma manbalar o’rta asrlar, yangi davrda yaratilgan bo’lib, ular fors, arab va turkiy tillarda etib kelgan. Davr o’tishi bilan ko’pgina manbalar yo’qolib ketgani ham ma’lum. Shu davrlarda yozilgan manbalar 1097-yildan, ya’ni Xorazmshoh - anushteginlar davlatining tashkil topishidan to 1231-yilgacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Mazkur tadqiqotda Xorazm vohasida yaratilgan shu yozma manbalardagi faqat Xorazmshoh - anushteginlar davlati va ma’muriy boshqaruviga ahamiyat berildi. Mavzuning tarixshunosligi va manbashunosligiga bag’ishlangan adabiyotlar va tadqiqotlar mingdan ham qo’pdir. Manbalardagi ma’lumotlar ham minglab varaqqlarni tashkil qiladi[11].

Xorazmda bitilgan yozma manbalarda davlatchiligidan haqidagi ma’lumotlarning o’rganilishi hamda tahlili quyidagi xulosalar va natijalarni olishga sabab bo’ldi:

- Xorazm tarixi va madaniyatining mo’g’ullar davrigacha bo’lgan davri arab va fors tilidagi manbalarda yoritilgan. Ulardan Ibn al-Asirning «Tarixi komil» asari, Shihobaddin Nasaviyning «Siyrat» va «Nafsat al-masdur» asarlari, Rashidaddin va Juvayniy, boshqa mualliflarning asarlarida Xorazm va Xorazmshohlarning davri, ular faoliyati bilan bog’liq ko’p masalalar bayon qilgan;

- Xorazmshohlar imperiyasi haqidagi manbalarda davlatchiligidan haqidagi masalalarining aks etishi bo’yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

- Xorazmshohlar davlatida davlat tashkiloti, davlatchiligi negizini Saroy, Hukumat, O’rdu (Qo’shin) va Dor al-qazo (sud mahkamasi) tashkil etgan[12].

- Xorazmshohlar davlatida davlat mansablari ma’muriy, diniy va harbiy lavozimlarga bo’lingan. Markaziy moliya soliq mahkamasining tuzilishi juda muntazam bo’lib, unga vazir, sohibi devon, munshiy, sohibi devoni istifo yoki mustavfiy (ya’ni daftardor), sohibi devoni ishraf yoki mushrif, hojibi xos, sohibi devoni arz yoki ariz va nozirlar, boshliq bo’lishgan. Bu mahkama turli-tuman soliq to’lovchi tabaqalarning hisobini olishda, davlatning tashqi va ichki ishlari yuzasidan wasiqalar hozirlash, davlatning moliyaviy ishlarini yuritish va boshqarib turish, davlat darajalari, idoralarini taftish qilib turish, qo’shin boshqaruvi, harbiy qo’shinni to’plash, harbiy boshliqlarni tayinlash, xorijiy elchilarni qabul qilish kabi masalalar bilan shug’ullangan. Davlatda ta’sis etilgan vazir, sohibi devon, hojib yoki ulug’ hojib, mastavfiy, nozir va ariz lavozimlari saroydagi eng yuqori lavozimlardan hisoblanib, bosh vazirlik vazifasiga to’g’ri kelardi[13].

- Mamlakatning butun hududi ma’muriy jihatdan viloyat tashk (voliy, noib - o’ribbosar), ya’ni viloyat va viloyat vazirliklariga bo’lingan. Vazir viloyatning eng vakolatli boshlig’i bo’lib, poytaxtdagi singari, viloyatlarda ham vazirga qarashli devonlar bo’lgan. Devoni istifo, devoni ishraf, devoni nazar va devoni arz kabi idoralar mavjud edi. Viloyatda vazirdan keyin eng nufuzli mansab egasi omil bo’lib, omil “voliy” ma’nosida ishlatilgan. SHuningdek shihna, rais, muhtasiblar ham viloyatning jamoat tartibi, soliq yig’ish masalalari, shaharni boshqarish va nazorat qilish vazifalarini bajarganlar.

- Harbiy va qo’shinga oid boshqaruv ishlarini Buyuk devonning bo’limi - devoni arz shug’ullangan. Hukmdorning gvardiyasi ham mavjud bo’lgan. U armiyaning bosh qo’mondoni edi. Xorazmshohlar davlatida viloyat markazlarida etarli miqdorda harbiy qismlar turgan. SHuningdek, mamlakatning chegara qismlari, yo’llar va mudofaa ahamiyatiga molik qal’alarda mudofaa qismlari bo’lgan.

- Voliylar va qal’a qo’mondonlari keyingi davrlarda yirik urug’ beklari orasidan tayinlangan. Ularning qo’l ostida ba’zan (aksariyat hollarda) qullandan tarkib topgan xos harbiy qismlar ham bo’lgan. Urug’ beklari xizmatga o’z urug’i qismini olib kelgan. Iqto egalaridan (sohiblaridan) tashkil topgan mahalliy qismlar ham ularning qo’l ostida bo’lgan.

- Sulton Alouddin davrida armiya qipchoqlar, so’ng qalach, qarluq, uran, ug’raq kabi urug’lardan tashkil topgandi. Alouddin davrida urug’ beklari qo’l ostida bo’lgan qipchoq-qanglilar gvardiyaning asosini tashkil etgan. Jaloliddin davrida ular armiyaga olinmagan. Chunki, Jaloliddin valiahdlikka tayinlangandan so’ng unga qarshi bosh ko’tarishgan.

- Jaloliddin davrida viloyat qo’shinlarining ayrim qismlari turkmanlardan tashkil topgan.

- Xorazmshohlar davlatida markazlashgan adliya tashkiloti tashkil topgan bo'lib, bu tashkilot shariat sudi va urf-odatga ko'ra hukm chiqarishga asoslangan. Qozilar sulton tomonidan tayinlangan. Quyi sudlar yuqori sudlarga tobe edi.

- Xorazmning gullab-yashnashi yuqori bosqichga chiqqanda qudratli Xorazmshohlar davlati atrofida eng kuchli turk qabilalari - qangli, qipchoq, turkman va qoraqalpoq aholisi birlashib, jipslashayotgan bir paytda Chingizzon qo'shinlari vaxshiyarcha bostirib kirdi. Oqibatda buyuk Xorazm imperiyasi mo'g'ul istilosini tufayli emiriladi, shahar va qishloqlarning deyarli hammasi talontaroj qilinib, aholisi qiriladi, qisman haydab olib ketiladi, minglab gektar unumdar erlar esa xarobaga aylanadi, doimiy ravishda tozalab va qarab turishni talab qiladigan sug'orish tarmoqlari tushkunlikka uchraydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. 4.И. (Тексты). СПб.: Издательство факультета вост.языков. СПб., ун-та. №4. 1898. 201+1 с. 8о. 4.II. Соч.., Т. II. 1963. - 575+VII с.
2. Бартольд В.В. К вопросу о Чингизидах-христианах. Соч.., Т. II.4. 2. 1964. - С. 417-418.
3. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Соч.., Т. II. ч. 2.1964. - С. 380-387.
4. Мазкур лекция 1896 йил 8 апрель СПб. Ун-тида укилган. Каранг:Бартольд В.В. Соч.., V. 1968. - С. 253-265.
5. Табакоти Носирий // Кулёзма. Россия ФА ШИ Санкт-Петербургдаги Шарқ кулёзмалари институти. - № 426 (572abb). Нашри: Tabaqati Nasiri. Edited by Abdul Hai Habibi. Kabul. Vol.I. 1963. Vol II. 1964.
6. Муфассал каранг: Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. / Сочинения. Том I. - С. 78. Прим.3.
7. Жувайний Хужа Алоуддин Атомалик. Тарихи Жаҳонкушо. // Кулёзма Узбекистон ФА ШИ. - № 610. 261 варак. Яна каранг: Тошов Н.И. «Ta'riix-i джаянгуша» Ала ад-дина Джувайни - ценный источник по истории Центральной Азии XII-XIII вв. Автореферат канд.ист. наук. Ташкент: ИВ АН Узбекистана, 2004.-22 с.
8. Ёкут. Иршод. Жилд III. - Лондон. 1910. - Б. 212.
9. Тупламдаги баъзи мактублар нашрига каранг: Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Ч. I. Тексты. СПб., 1898. - С. 23-26, 30-32, 43-44.
10. Китоб ат-Тавассул ила-т-тарассул. Бо сайд ва эхтимоми Бахманёр ва муқаддимайи Мирзо Мухаммадхон

11. Казвини. Техрон, 1315/1936. Баъзи хужжатларнинг нашри: Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Ч. I. Тексты. СПб., 1898. - С. 73-82.
12. Нафсат ал-масдур. Иншои Шихобиддин Мухаммад Хурандизи Насави. Тасхих ва тавзихи дуктар Амир Xасан Йаздагирди. Чопи аввал. -Техрон: Тус, Китобхонайи миллии Эрон. 1381. - 948 с. (форс тилида)Каранг: Петрушевский И. Новый источник по истории монгольского нашествия. // Вопросы истории, 1946. -№ 11-12. - С. 121-126
13. Петрушевский И. Новый источник по истории монгольского нашествия. // Вопросы истории, 1946. -№11-12. - С. 122. Окойи Мирзо Мухаммадхон Казвиний. Дар бобби нусхай «Нафсат ал-масдур» толифи Нураддин Мухаммад Мунши. / Нафсат ал-масдур. Иншои Шихобиддин Мухаммад Хурандизи Насави. - С.38-81.
14. Вокеа тафсилотлари хакида каранг: Ан-Насавий. Султон жалолиддин Мангуберди (97-боб. Тотоларнинг Султонга Ширкабут чегараларида килган хужуми баёни) - Б. 266 ва кейингилари. «Нафсат ал-масдур». - Б.38-44..
15. Вокеа тафсилотлари хакида каранг: Ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди (105-боб.) - Б. 287 ва кейингилари. «Нафсат ал-масдур». - Б. 47-48.